

**OLIY TA'LIMDA KREDIT-MODUL TIZIMI VA KOMMUNIKATIV
KOMPETENSIYANING INTEGRATSIYASI: NAZARIYA VA AMALIYOT****Xusanov Alpomish Boyburi o'g'li**

Xalqaro Nordik universiteti

2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida joriy etilgan kredit-modul tizimi hamda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish jarayoni o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tahlil qilinadi. Kredit-modul tizimining talabalarning mustaqil ta'limga yo'naltirilganligi, o'z fikrini erkin va ravon ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, kommunikativ kompetensiyaning mazmuni, tuzilmasi va uni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ko'rib chiqiladi. Xorijiy tajriba misolida kredit-modul tizimi orqali samarali kommunikativ muhit yaratish yo'llari tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar beriladi. Ushbu maqola nazariy asoslar bilan bir qatorda, amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi samarali muloqotni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Kredit-modul tizimi, kommunikativ kompetensiya, oliy ta'lim, integratsiya, mustaqil ta'lim, pedagogik texnologiyalar, xorijiy tajriba, ta'lim samaradorligi, interfaol metodlar, muloqot madaniyati.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining turli sohalarida samarali muloqot qilish ko'nikmalarining ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi, hamda mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Bunday kompetensiyani rivojlantirish uchun esa zamonaviy ta'lim metodlari va texnologiyalaridan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

Oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimining joriy etilishi esa ushbu jarayonda tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Mazkur tizim talabalarning mustaqil ta'lim olishiga, ta'lim mazmunining individuallashtirilishiga va interfaol ta'lim texnologiyalarining keng qo'llanilishiga zamin yaratadi. Bunday sharoitda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun yangi metodik yondashuvlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va ta'lim muhitini kommunikativ jarayonlarga yo'naltirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kredit-modul tizimi orqali talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, kredit-modul tizimi orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish bilan bir qatorda, talabalarning mustaqil bilim olishiga va jamiyatda faol ishtirok etishiga ham xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham kredit-modul tizimini joriy etish va uni kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayoni bilan bog'lash bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-5847-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish va oliy ta'lim tizimini xalqaro talablarga moslashtirish" dasturi doirasida ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv joriy qilinmoqda.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimi va kommunikativ kompetensiyaning o'zaro integratsiyasi asosida samarali ta'lim muhitini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u oliy ta'limda kredit-modul tizimi va kommunikativ kompetensiyaning integratsiyalashuvi borasidagi ilmiy asoslarni kengaytiradi. Amaliy jihatdan esa, tadqiqot natijalari pedagoglar, ta'lim muassasalari rahbarlari hamda ta'lim

sohasida islohotlarni amalga oshirayotgan mutaxassislarga metodik qo'llanma sifatida foydali bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. B.N.Aliqulov kredit-modul tizimiga xos bo'lgan pedagogik ta'limni birlashtirish, mustahkam qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'rnatish, reflektiv amaliyotni targ'ib qilish va hamkorlikda o'quv muhitini rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi¹.

Y.Burkovaning ta'kidlashicha, kredit-modulli o'qitish chet tilidagi shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish qobiliyati va tayyorligini anglatuvchi muloqot kompetentsiyasini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak².

B.Usmonov, V.O'rinovlarning ta'kidlashicha, o'quv jarayonini tashkil etishning kredit-modulli tizimi talabani oliy ta'lim mazmunini sifatli o'zlashtirishga majbur qiladi va shu bilan turli ta'lim muassasalarida va Yevropa mamlakatlarida o'quv natijalarining ob'ektiv tan olinishini ta'minlaydi³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan⁴.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 824-son Qarori bilan OTMlarning akademik mustaqilligini kengaytirish bo'yicha masalalar belgilandi⁵ hamda "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom" tasdiqlandi. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 15-yanvardagi 30-son buyrug'i bilan OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga taalluqli hujjatlar namunalari tasdiqlandi⁶.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldagi 311-son buyrug'i⁷ bilan kredit-modul tizimini joriy etish bo'yicha "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", TXSK-2011 va TXSK-2013 ga muvofiq ishlab chiqilgan "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori" tasdiqlandi. Shuningdek, barcha OTM larning 2020-2021-yilidan boshlab kredit-modul tizimiga o'tishi, o'quv

¹Aliqulov B.N. Yosh o'qituvchilarda kredit-modul tizimiga didaktik moslashuvni rivojlantirish omillari // "Pedagogs" international research journal. – 2024. – №53(1). – B. 110-115.

²Sh.K.Abdurasulova. Kredit-modul tizimida oliy ta'lim muassasalarida talabalarining muloqot kompetentsiyalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari // Raqamli didaktika va madaniyat: zamonaviy tendensiyalar, yondashuvlar, yechimlar Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Guliston, 2024. 145-152 b.

³Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. 2019-yil 8-oktyabr // <https://lex.uz/docs/-4545884>

⁵Vazirlar Mahkamasining qarori. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2020-yil 31-dekabr // <https://lex.uz/docs/-5193564>

⁶Vazirlar Mahkamasining qarori. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom. 2021-yil 15-yanvar // <https://lex.uz/ru/docs/-5193564>

⁷O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining [buyrug'i](#). Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori. 2021-yil 19-oktabr <https://lex.uz/docs/-6581469>

rejalar va o'quv dasturlarini mustaqil ishlab chiqishi belgilab qo'yildi.

O'zbekistonda oliy ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash va kredit-modul tizimiga o'tish jarayonini rivojlantirish ehtiyoji dolzarb masalalardan biridir. Kredit-modul tizimi ta'lim sifatini nazorat qilish, talabalarning bilimini adolatli baholash va xalqaro tajriba bilan integratsiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotda kommunikativ kompetensiya to'rt asosiy komponent – grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar asosida tahlil qilingan. Mualliflar til o'rganish jarayonida samarali muloqot yuritish, kontekstga mos so'zlashish, shuningdek, nutqdagi strategik yondashuvlarni o'rgatish zarurligini asoslaydilar. Bu yondashuv talabaning o'z fikrini mustaqil ravishda ifoda etish, kreativ yondashuvda muloqot qilish salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Normurodova kommunikativ kompetensiyani mustaqil o'rganish, amaliy mashg'ulotlar va loyiha asosida rivojlantirish metodikasini taklif qiladi. Interaktiv muloqot va axborot almashinuvi orqali talabalar o'z fikrini erkin bayon etish, ijtimoiy va kasbiy kontekstlarda muloqot qilishni o'rganadilar. Bu esa kreativ fikrlash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

B. G'ofurov talabalarda kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodlari. Ushbu ishda kasbiy yo'nalishdagi muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish metodlari taklif etiladi. Jumladan, og'zaki va yozma muloqot, fikrni dalillar bilan asoslash, kasbiy nutq madaniyatiga amal qilish kompetensiyalari yoritilgan. Mustaqil ta'lim sharoitida bu kompetensiyalar orqali talabaning fikrini erkin ifodalashi, kasbiy kreativ fikrlash salohiyati ortadi.

N. Zokirova AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) yordamida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Onlayn muloqot, virtual forumlar va elektron muhokamalar orqali talabalar o'z g'oyalarini yaratish va ifoda etish ko'nikmasini mustaqil rivojlantiradilar. Bu jarayon kreativ fikrlash kompetensiyasining asosiy negizidir.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda mustaqil ta'limning didaktik imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy yondashuvlarga tayanadi:

1. Adabiyotlar tahlili: Tadqiqotda mavjud bo'lgan ilmiy va pedagogik adabiyotlar tahlil qilindi. Xususan, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari o'rganildi, bu esa kompetensiyaning tarkibiy qismlarini aniq belgilashga imkon berdi.
2. Eksperimental tadqiqot: Tadqiqotda o'quv jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha interaktiv mashg'ulotlar, loyiha ishlaridan foydalanish va real vaqt rejimida o'tkazilgan o'quv faoliyatlarining natijalari kuzatildi.
3. Kvantitativ va sifatli tahlil: Talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqlar va o'quv jarayonidagi interaktiv faoliyatlar natijalarini tahlil qilishda statistik va sifatli yondashuvlar qo'llanildi. Bu usullar orqali talabalarning kreativ fikrlash va muloqot salohiyatini o'lchash imkoniyati yaratildi.
4. Pedagogik tajriba va anketalar: Talabalar bilan o'tkazilgan so'rovnomalar va anketalar yordamida ularning kommunikativ kompetensiyasi va mustaqil ta'limga nisbatan munosabati o'rganildi. Shuningdek, dars jarayonidagi interaktiv metodlarning samaradorligi baholandi.

Natija va tahlili. Eksperimental tadqiqotlar va tahlil qilingan materiallar asosida quyidagi natijalarga erishildi:

1. Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi: Mustaqil ta'lim metodlarini qo'llash talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini sezilarli darajada yaxshilashga yordam berdi. Talabalar o'z fikrlarini aniq va samarali ifoda etish olishda, yangi g'oyalarni yaratishda va muloqotda ijodiy yondashuvlarni qo'llashda yaxshi natijalar ko'rsatdilar.
2. Kreativ fikrlashning rivojlanishi: Interaktiv va loyiha asosida o'qitish metodlari talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Talabalar turli ijtimoiy va kasbiy kontekstlarda muloqot qilishni o'rganib, yangi yondashuvlar yaratishda faol ishtirok etdilar.

3. Metodik metodlarning samaradorligi: Mustaqil ta'limda qo'llanilgan interaktiv usullar, onlayn platformalar va kooperativ yondashuvlar talabalarning nutq madaniyati va kreativ ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirdi. Ayniqsa, guruhli ishlar va muammoli vazifalar talabalarning muloqotda faol bo'lishini ta'minladi.

4. O'quv jarayonidagi innovatsiyalar: AKT va interaktiv metodlarning o'quv jarayoniga integratsiyasi talabalarning yangi g'oyalar yaratish, problemalarni hal qilish va fikrlarini mantiqiy ravishda bayon etish ko'nikmalarini yaxshiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mustaqil ta'lim talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotda aniqlangan asosiy xulosalar quyidagilardir:

1. Interaktiv metodlarning samaradorligi: Interaktiv yondashuvlar va loyiha ishlari talabalar orasida samarali muloqot va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berdi. Bu metodlar, shuningdek, talabalarda muloqotdagi moslashuvchanlik, kreativ fikrlash va muammolarni hal etish salohiyatini kuchaytirdi.

2. Mustaqil ta'lim va kommunikativ kompetensiya: Talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va ijtimoiy madaniyatga mos ravishda so'zlashish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishdi. Mustaqil ta'lim jarayonida olingan bilimlar amaliyotda qo'llanilganda yanada samarali natijalar ko'rsatdi.

3. Kreativ fikrlash va mustaqil o'rganish: Mustaqil ta'lim talabalarda kreativ fikrni shakllantirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida innovatsion yondashuvlarni, g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llashga imkon yaratadi.

Shunday qilib, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda mustaqil ta'limning didaktik imkoniyatlari talabalarning ijodiy salohiyatini kuchaytirish, ularda yangi g'oyalar yaratish va samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. 2019-yil 8-oktyabr // <https://lex.uz/docs/-4545884>

2. Vazirlar Mahkamasining qarori. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2020-yil 31-dekabr // <https://lex.uz/docs/-5193564>

3. Vazirlar Mahkamasining qarori. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom. 2021-yil 15-yanvar // <https://lex.uz/ru/docs/-5193564>

4. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining [buyrug'i](#). Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori. 2021-yil 19-oktabr <https://lex.uz/docs/-6581469>

5. Aliqulov B.N. Yosh o'qituvchilarda kredit-modul tizimiga didaktik moslashuvni rivojlantirish omillari // "Pedagogs" international research journal. – 2024. – №53(1). – B. 110-115.

6. Sh.K.Abdurasulova. Kredit-modul tizimida oliy ta'lim muassasalari talabalarining muloqot kompetentsiyalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari // Raqamli didaktika va madaniyat: zamonaviy tendensiyalar, yondashuvlar, yechimlar Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Guliston, 2024. 145-152 b.

7. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

8. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.

9. Celce-Murcia, M., Dörnyei, Z., & Thurrell, S. (1995). Communicative Competence: A Pedagogically Motivated Model. Issues in Applied Linguistics, 6(2), 5–35.

10. Bachman L.F. (1990). Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford University Press.
11. Normurodova D. (2021). Oliy ta'limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
12. G'ofurov B. (2019). Talabalarda kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodlari. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
13. Zokirova N. (2020). Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni. Toshkent: Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti.